

FRANSUZ TILI VA O'ZBEK TILINING FARQLI JIHLATLARI

Xurramova Farangiz¹¹ Samarqand davlat chet tillar instituti Roman-german fakulteti

Fransuz tili filologiyasi kafedrasining 1-bosqich talabasi

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.01.2025

Revised: 24.01.2025

Accepted: 25.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

Fonetika, fransuz tili,
o'zbek tili, tovush,
talaffuz, harf, afzallik
jihatlari, unli, undosh,
maqol

Ushbu maqolada fransuz tili va o'zbek tilining fonetikasini va maqollarini solishtirishga qaratilgan. Maqolada har ikkala tilning fonetik tizimlaridagi o'ziga xos xususiyatlar tahlil qilinadi, jumladan, tovushlar, ularning talaffuzi, ohang va intonatsiyalaridagi farqlar keltirilgan. Fransuz tilidagi tovushlar va ularning talaffuzi o'zbek tilidagi talaffuzga nisbatan qanday farq qilishi, shuningdek, o'zbek tilining fonetik tizimidagi o'ziga xosliklar haqida ham so'z yuritilgan. Bundan tashqari, maqolada fransuz va o'zbek tilidagi maqollar solishtiriladi. Har ikki tilda xalqning hayotiy hikmatlari, qadriyatlari va dunyoqarashlari qanday ifodalanishi va maqollar orqali qanday fonetik o'zgarishlar yuzaga kelishi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, fransuz tilining afzalliklari ham keng yoritilgan.

KIRISH. Har bir tilning o'ziga xos tuzilishi va grammatikasi mavjud. Shuningdek, o'zbek tilida 29 ta harf, fransuz tilida esa 26 harf mavjud. Fransuz tilida 15 ta, o'zbek tilida 6 ta unli bor. Fransuz tilida so'z oxiridagi undoshlar jarangsizlanmaydi, o'zbek tilida esa ular jarangsizlashadi: maktab (b-p); limonade (limonad). Fransuz tilida cho'ziq va qisqa unlilar bor, o'zbek tilida esa yo'q. Ochiq unlilar fransuz tilida o'zbek tilidagidan ko'p. Fransuz tilida 8 ta, o'zbek tilida 2 ta lablangan unli bor. (Usmonova, M). Fransuz tilida undosh tovushlar deyarli yumshoq talaffuz qilinmaydi. Masalan: tenir-ushlamoq, directeur-direktor. Ushbu

tillarga fonetik jihatdan yondashadigan bo'lsak, fransuz tili o'zbek tilidan tovushlar soni ko'pligi bo'yicha farqlanadi. Ya'ni fransuz tilida 33 ta tovush, o'zbek tilida 30 ta tovush mavjud.

Unli tovushlarni taqqoslash: Fransuz tilidagi tovushlar burunlanganligi va boshqa xususiyatlar bilan ajralib turadi, masalan; (é) kabi tovushlar o'zbek tilida yo'q. O'zbek tilidagi unli tovushlar sodda va burunlanmaganligi bilan ajralib turadi.

Urg'u jihatidan ham fransuz tili ajralib turadi. O'zbek tilida urg'u so'zning oxiriga tushadi. Fransuz tilida bo'lsa, grammatik va kontekstual rolga qarab har xil joylashadi.

Bundan tashqari, fransuz tilining fonetik imkoniyatlaridan yana biri shundaki, harflar soni yozuvda ko'p bo'lishiga qaramasdan talaffuzda yagona, bitta bo'lib talaffuz qilinadi. Xususan:

ai-(e)-maison-uy

ou-(u)-fou-telba

eu-(o')-feu-olov

oi-(ua)-fois-marta

au-(o)-aube-tong

eau-(o)-beau-chiroyli

Ushbu tovushlar miqdori ko'p bo'lishiga qaramasdan ular bir tovush bilan talaffuz qilinadi.

in-incendie-yong'in

im- important-muhim

on-oncle-amaki, tog'a

om-ombre-soya

Ushbu burun tovushlaridan keyin birorta unli harf yoki n, m harflar yana bittaga ko'payib kelsa, bunday holatda burun tovushi yo'qoladi va oddiygina n, m deb o'qiladi.

Bonne-yaxshi

Pomme-olma

Shular jumlasidandir.

Yana ayrim holatlar kuzatiladi, bular:

C-E cette-bu

C-I (S cinéma-kino

C-Y cygne-oqqush

Boshqa holatlarda bu „k'' deb o'qiladi.

coton-paxta

capitale-poytaxt

G-E geler-muzlatmoq

G-I (dj) gilet-nimcha

G-Y gymnastique- gimnastika

Boshqa holatlarda esa bu harf „g” deb o’qiladi.

garcon-bola

guet-yashirin kuzatish

O’zbek tilining talaffuzida unlilar yetishmasligi mavjud. Jumladan: i-bilim mana shu so’zda (i) tovushi talaffuz qilinmaydi, bu esa tovushlarga nisbatan hurmatsizlikni ifodalaydi. Fransuz tilida bo’lsa, unli unli harflarni to’liq holida ajralib turadi lekin har doim ham emas. Ayrim hollarda mana shunday holat kuzatiladi. Bular ko’plab so’zlarda uchraydi. Jumladan, *démander*-so’ramoq fe’lida kuzatiladi. (é)-bu belgi (e) ning to’liq talaffuz qilinishini ta’minlaydi. Ushbu belgi (accent grave) deb nomlanadi.

Fransuz tilining yana bir jihati shundan iboratki, bu holat maqollarda kuzatiladi. O’zbek tili maqollarida hayotiylik mavjud. Bu jarayonlarni quyidagi maqollar orqali bilib olamiz.

*Il n’y a pas de fumée sans feu

(Tutun yo’qsiz olov bo’lmaydi.)

Ushbu maqolada bir holatda yoki biron vaziyatda bironta sabab bor ekanligini bildiradi.

*Mieux vaut tard que jamais.

(Hech bo’lmaganda kech bo’lsa ham umuman bo’lmasidan yaxshiroq)

Ushbu maqolda agar siz bir ishni kechiktirgan bo’lsangiz ham, uni bajarish yaxshi yo’l ekanligini bildiradi.

O’zbek tilida:

*Tashqi ko’rinish ichki dunyoni anglatmaydi.

Ushbu maqolda insonning tashqi ko’rinishi, uning ichki olam go’zalligini ifodalay olmaydi, ya’ni ichki fazilatlarini degan g’oya ilgari surilgan.

*Agar niyat yaxshi bo’lsa, yo’l oson bo’ladi.

Ushbu maqolda insonning niyati qanchalik to’g’ri bo’sa, u erishmoqchi bo’lgan narsalarning ham kelishi oson bo’ladi. Shuning uchun ham ota-bobolarimizdan mana shunday so’zlar qolgan ” Niyatingga yarashasini olasan ”

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, o’zbek tilining fonetikasida kuzatiladigan muammolar kamayishi kerak, ya’ni unlilarning talaffuz qilinmasligi bo’yicha muammolar yuzaga kelmoqda . Bu jihat esa tilning fonetikasiga o’z ta’sirini o’tkazmasdan qolmaydi. Maqollarda har ikkala xalqning o’zining qadriyatlari va

hayotiy hikmatlari aks etgan. Biz bu maqollar orqali fransuz tilini lingvistikasi va fonetikasini bilib olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonova, M. (2021). Fransuz tili fonetikasini qiyoslab o'rganishning ahamiyati.
2. Yangiboyeva, Sh. (2023). Fransuz tili fonetikasini qiyoslab o'rganishning ahamiyati.
3. www.google.uz
4. ziyo.net
5. Mamasoliyeva, G. Fransuz va o'zbek tillari o'rtasidagi fonetik farqlanish.
6. O'razboyeva, Sh. Fransuz tilida unli undosh tovushlar talaffuzida bog'lanishlar hosil bo'lishi.

